

**"MAHBUB UL-QULUB","HAYRAT UL-ABROR","FARHOD  
VA SHIRIN" ASARLARIDA TARBIYA MASALALARI**

*Nusratillayeva Sevarabonu Rustam qizi*

*NDU Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim fakulteti,*

*Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 1 kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Sharipova Nodira Choriqulovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining zabardast namoyandası bo'l mish Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Hayrat ul-abrор", "Farhod va Shirin" asarlaridagi tarbiyaviy jihatlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Navoiy, saxovat, hilm, odob, komillik

**Аннотация:** В статье анализируются просветительские аспекты произведений выдающегося представителя узбекской классической литературы Алишера Навои, таких как «Махбуб ул-кулуб», «Хайрат ул-аброр», «Фарход и Ширин».

**Ключевые слова:** Навои, щедрость, доброта, порядочность, совершенство

**Annotation:** This article analyzes the educational aspects of the works of Alisher Navoi, a prominent representative of Uzbek classical literature, "Mahbub ul-qulub", "Khairat ul-abrор", "Farhod and Shirin".

**Keywords:** Navoi, generosity, kindness, decency, perfection

**Kirish.** Alisher Navoiy nafaqat o'zbek xalqini,balki butun dunyoni maftun etgan shoirlardan biridir.Uning tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan bir qancha asarlari insonni komil inson sari yetaklashi,shubhasiz.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olujanob xalqimiz bilan birga quramiz" asarida shunday yozgan edilar:"Alisher Navoiy bobomiz xotirasiga hurmat- ehtirom ko'rsatish,ul zotning tabarruk merosini o'rganish,yosh avlodimizga bezavol yetkazish borasida ibratli ishlar qilinayotganini alohida ta'kidlashni istardim".<sup>1</sup>(Sh.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olujanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent 2017-y 113-bet) Bugunki kunda Navoiy asarlarini nafaqat o'zbeklar,hattoki boshqa millat vakillari ham o'qib,o'rganib kelishyapti.Shuning uchun asarlari rus,ukrain,nemis,belorus, qozoq, ozarbayjon, Turkman, xitoy, arab tillarida chop etilgan .Navoiyga atab yozilgan kitoblar,she'rlar,qissalar ham kundan kunga oshmoqda.Mirkarim Osim o'z ijodini Navoiyga bag'ishlangan asarlardan boshlagan va uni "Astrobod" nomi bilan a tagan.Shundan keyin ijodkor Navoiyga atab boshqa janrdagi qissa va hikoyalarni yoza boshlagan.Biz yoshligimizdan sevib o'qiydigan Oybekning "Navoiy" romani,Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur","Badarg'a","Navoiyning

xislatlari","Ulug'bek va Navoiy" tarixiy qissa va hikoyalarida Navoiy siyosini yaxlit holda ko'rishimiz mumkin.

"Mahbub ul-qulub" asari(Ko'ngillarning sevgani) 1500-yilda Alisher Navoiy tomonidan yozilgan tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi pandnomalar asar.Ushbu asar Navoiyning hayoti davomida ko'rgan-kechirganlarini chuqur tahlil qilib,xulosa chiqarilgan qimmatli asar hisoblanadi.Bu asari orqali shoir jamiyatni saxovatli bo'lish ga undaydi,saxovatsiz kishilarni esa qattiq qoralaydi.Saxovat insoniyat bog'inining borvar shajardinur,balki ul shajarning mufid samaridur.Odamiyliq kishvarining bahri mavjvari,balki ul mavj bahrining samin gavhari.Saxovatsiz kishi-yog'insiz abri bahor va royihasiz mushki totor.<sup>2</sup>(A.Navoiy "Mahbub ul-qulub" Yoshlar nashriyot uyi Toshkent 2018-y 86-bet)"Mahbub ul-qulub" asaridan olingan ushbu jumlalar orqali Navoiy saxovatli insonni qimmatbaho gavharga qiyoslab,saxovatsiz kishini yog'insiz bahorga mengzamoqda. Saxosiz kishi birla gavharsiz sadafning bir hukmi bor.Dursiz sadaf bila o'lub qurug'an kashafg'a ne e'tibor.<sup>3</sup>(A.Navoiy "Mahbub ul-qulub" Yoshlar nashriyot uyi Toshkent 2018 86-bet).Asardan olingan bu parchada saxovatsiz kishilar gavharsiz sadafga o'xshatilgan.Jumla orqali agar inson saxovatdan mahrum bo'lsa, u qiymatsiz chig'anoqdek bo'ladi,ya'ni hech kimga keragi bo'lmaydi degan ma'no kelib chiqadi.Shoir ushbu asarda ilm to'g'risida ham qimmatli saboqlar berib o'tadi.Unda ilmli kishilarni ulug'laydi,ilmsiz insonlarni esa qattiq tanqid qiladi.Ilm inson vujudining favokihlig' bog'idur,odamiylig' olamining javohirlig' tog'i.<sup>4</sup>(A.Navoiy "Mahbub ul-qulub" Yoshlar nashriyot uyi Toshkent 2018-y 90-bet).Insonning tarbiyasi,axloqi uning o'zligini anglatib qo'yadi.Shuni ham alohida aytish joizki,shoir ilmsiz insonlarni qadrlamasligini bot-bot takrorlaydi. Imsiz kishilar-jamiyatdagi axloqiy inqirozning belgisi sifatida tasvirlangan. Ilm odob va sabrni tarbiyalasa,saxovat muruvvat va mehrni tarbiyalaydi.Har ikki ulug' xislatlar insonni kamolotga yetkazadi,jamiyatni esa yuksaltiradi.Navoiy bu asari bilan inson qachonki ezgu fazilatlarni o'zida uyg'otib bilsa,o'shandagina tarbiyaviy muhitni yaratса bo'ladi demoqchi.

"Xamsa" asaridagi birinchi doston bu "Hayrat ul-abrор".Bu asar ayrim sababga ko'ra "Hayrat ul-abrор" deb nomlangan.Navoiy do'sti bo'l mish Jomiyning asarlarini sevib o'qib,ular forsiy tilda yozilganini bilib oladi.Shunda u o'z ona turkiy tilida bir asar yaratib,o'z xalqini mamnun qilmoqchi bo'ladi.<sup>5</sup>(A.Navoiy "Hayrat ul-abrор" Toshkent 2006 G'.G'ulom nomidagi nashriyot 5-bet)

Hayrati abror ko'rib zotini

"Hayrat ul-abrор" dedim otini

Nuktai tarixiki,ahsan edi

Sakkizu sekiz yuzu seksan edi<sup>6</sup>(A.Navoiy "Hayrat ul-abrор" Toshkent 2006 G'.G'ulom nomidagi nashriyot 6-bet)

Navoiyning "Hayrat ul-abror" asaridan olingan ushbu jumlalar asar nomlanishi sababidir.Ya'ni yaxshi kishilarni hayron qoldirgani uchun uni "Hayrat ul-abror" deb atadim.Yozilish tarixi esa 888 hijriy yili bo'ldi deydi shoir.Navoiyning bu asarida odob-axloqqa chorlovchi,insonparvarlik g'oyalari singdiriliuvchi,ezgulik va insoniy barkamollik sari yetoklovchi fazilatlar ,hattoki karam va saxovat bobida ham me'yorni unutmaslik haqida so'z borgan. Asarning har bir maqolati insonning ichki olamini,uning ruhiy holatini va axloqiy qiyofasini tarbiyalashga qaratilgan.

Komil inson bu- mukammal,axloqiy,ma'naviy,intellektual fazilatlarga ega bo'lган shaxs timsolidir.Bunday insonni biz Alisher Navoiy qalamiga mansub "Xamsa" asarining ikkinchi dostoni bo'lmish "Farhod va Shirin" dagi Farhod obrazi orqali bilishimiz mumkin.Navoiy Farhodni tasvirlashicha u yoshligidan ilmli,barkamol bo'lib o'sadi.

O'qib o'tmak,uqib o'tmak shiori

Qolib yodida,safha-safha bori<sup>7</sup>(A.Navoiy "Farhod va Shirin" Toshkent 2006 G'.G'ulom nomidagi nashriyot 50-bet)

Farhod-nafaqat sevgi,balki axloq,aql,mehnat,va fidoyilik timsolidir.Shu jihatdan u komil insonning yorqin ifodasidir.Shiringa bo'lган samimiyo muhabbat yo'lida og'ir sinovlarga duch kelib,barini yengib o'tadi.Bu esa komil insonning sabr-bardoshli ekanligini ko'rsatadi.Asar nafaqat muhabbat haqidagi doston,avlodni ma'naviy,axloqiy yetuklikka chorlaydigan qimmatbaho gavhardir Shoир ijodini targ`ib qilish va ilmiy merosini chuqur o'rganish maqsadida muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2025-yil Navoiy viloyatiga tashrif buyurdi va ushbu yilni Navoiyga bag'ishlab "Alisher Navoiy yili" deya e'lon qildi.

Shoирга atab bog'lar barpo etilib unga Navoiy nomi berildi .Yoshlarning ma'naviy salohiyatini yuksaltirish uchun ko'plab ta'lim olish maskanlarida Navoiy ijodiga bag'ishlab ko'plab ma'rifiy tadbirlar,ochiq darslar,g'azalxonlik kechalari tashkil etildi.

Alisher Navoiy ijodiga talpinayotgan insonlar shoirning naqadar she'riyat shaydosi ekanligi va yuksak ma'naviyat sohibi ekanligiga amin bo'lishadi.

### **Xulosa**

Alisher Navoiy asarlari hali hanuz o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.Bugungi kunda yoshlar Navoiy asarlarini sevib mutolaa qilib,hayotiy saboqlar,tegishli xulosalar olishmoqda.Bu esa shoir ijodiga qiziqishni yanada oshirib,ijodkor yoshlarning yanada ko'proq izlanishiga sabab bo'lyapti. Alisher Navoiy asarlarining barchasi chuqur ma'naviy va axloqiy pand-nasihatga boy bo'lib, yoshlarni komil inson bo'lishga undaydi. Bu asarlar orqali halollik,adolat, mehnatsevarlik, sabr-toqat, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlar targ`ib qilinadi. Navoiy har bir qahramon timsolida insonlarni ezgulikka, xalqga xizmat qilishga, rostgo'ylik va vijdon bilan yashashga chorlaydi. Shu bois bu asarlar nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham bebaho merosdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent 2017 113-bet
2. A.Navoiy "Mahbub ul-qulub" Yoshlar nashriyot uyi Toshkent 2018 86-bet
3. A.Navoiy "Mahbub ul-qulub" Yoshlar nashriyot uyi Toshkent 2018 90-bet
4. A.Navoiy "Mahbub ul-qulub" Yoshlar nashriyot uyi Toshkent 2018 86-bet
5. A.Navoiy "Hayrat ul-abror" G'.G'ulom nomidagi nashriyot Toshkent 2006 5-bet
6. A.Navoiy "Hayrat ul-abror" G'.G'ulom nomidagi nashriyot Toshkent 2006 6-bet
7. A.Navoiy "Farhod va Shirin" G'.G'ulom nomidagi nashriyot Toshkent 2006 50-bet